

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

CHARLZ DIKKENSNING “OLIVER TVISTNING SARGUZASHTLARI” ASARNING YARATILISH TARIXI

Umida Abdullayeva Raxmatovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti, 1-bosqich doktoranti
e-mail:abdullayevaumida0989@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz yozuvchisi Charlz Dikkensning 1837-1839-yillarda yozilgan xalq dardini qahramonlarning taqdirilarida aks ettirgan “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asarining omma e’tiboriga taqdim etilgani, uni yaratilish tarixi, asarning voqealar rivoji qanday kiritilganligi to’g’risidagi ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Kitobxonlarga ma’lumki, Charlz Dikkens xar bir asarida o’zi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini, xalqning xursandchiligu, tashvishini qahramonlar hayotida bayon etgan.

Kalit so‘zlar: Oliver Tvist, mehnat uyi, Kambag‘allar qonuni, qahramon, ijtimoiy hayot.

Adabiyot inson hayotining aksi bo‘lib adabiy me’ros har bir yozuvchining hayotidagi, yon atrofidagi hodisa, voqealarni ko‘rsatib beruvchi bebaho jamlanma sanaladi. Shu jihatdan adabiyot badiiy asarlar, romanlar, pyesalar va she’rlar bilan qadrlanadi. Ana shunday nodir asarlardan biri “Oliver Tvistning sarguzashtlari” bo‘lib, u o‘z davrida yetarlicha mashhurlikka erishgan, xalqchil roman sifatida e’tirof etiladi. Romanning muallifi Charlz Jon Xuffam Dikkens 1812-yil Angliyaning janubiy sohillarida joylashgan Yozuvchining hayot yo‘li bevosita uning asarlari uchun asosiy material vazifasini bajargan. Charlz Dikkensning otasi Jon Dikkens qirollik dengiz flotida amaldor lavozimida ishlagan, biroq otasining qarzdorligi sabab qamalgani, Dikkensning o‘n ikki yoshida maktabni tashlab, ishlashga majbur bo‘lgan. Otasi qamoqxonadan ozod bo‘lgandan keyin ham, onasining qistovi bilan yana fabrikada ishlashni davom ettiradi.

Yozuvchining o‘smirlik va yoshlik yillari moliyaviy qiyinchilik va kamsitishlarga to‘la edi. Dikkens mehnat uylari, xarobalar, kambag‘allar, jinoyatchilarning qashshoq hayoti bilan bevosita tanish edi. Keyinchalik u boshidan kechirgan barcha narsalarni o‘z kitoblari sahifalarida g‘ayrioddiy jonli va realistik tarzda tasvirlaydi. Dikkens XIX asr Yevropa adabiyotidagi eng mashhur oqimlardan biri bo‘lgan realizm ustunlaridan biri hisoblanadi. Dikkens ijodiy faoliyatini dastlab muxbir sifatida boshlagan. O‘zining iste’dodi va zamonaviy muammolarga befarq bo‘lmagani tufayli u qisqa vaqt ichida jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi va eng mashhur mualliflardan biriga aylangan. Shu taqlid uning bir qancha asarlari birin-кетин paydo bo‘ldi: axloqiy "Bozning qissalari" (Sketches by Boz) va "Pikvik klubining vafotidan keyingi yozuvlari" (The Pickwick Papers) hajviy janrda yozilgan romanlari yaratila boshlandi. Ayniqsa, ikkinchi asari unga kitobxonlar orasida katta

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shuhrat olib keldi va bir kechada uni mashhur yozuvchiga aylantirdi. Uning "Nikolas Niklbi sarguzashtlari" va ayniqsa "Oliver Tvistning sarguzashtlari" asarlari ingliz jamiyatining kemptik tomonlarini yorqin va rang-barang chizgan. Ushbu roman keng jamoatchilik noroziligiga uchragan va keyinchalik kambag'allarga va ishchi bolalarga nisbatan ko'plab shafqatsiz qonunlarning yumshatilishiga va hatto bekor qilinishiga olib kelgan. Keyingi yillarda Dikpens o'z o'quvchilarini "Dombi va o'g'il" yangi asarlari, "Devid Kopperfild" avtobiografik romani bilan xursand qilgan va bu unga umumiyevropa shon-shuhratini va boshqa ko'plab asarlarni olib keldi.

Keyinchalik Dikpens o'zi xohlagan hamma narsaga erishgan, biroq yozuvchi shon-sharafi ham, "Daily News" gazetasining bosh muharriri lavozimi ham, unga baxtli hayot kechirishga imkon beradigan katta pullar ham unga tinchlik va baxt keltirmadi. Asabiy, hayajonli tabiat unga oilaviy tinchlikdan zavqlanishiga imkon bermadi. Turmush o'rtog'i Ketrin Hogart bilan sakkiz farzandning ota-onasi bo'lishgan. Yozuvchi hayotining so'nggi yillari ham uning o'z iste'dodini shubha ostiga qo'ygan. Yozuvchi o'zi yashagan jamiyatning bosqichma – bosqich o'zgarishini, ijtimoiy adolatsizlikning yo'q qilinishini, kitoblari sahifalaridan qoralagan hamma narsani ko'rishni xohlaydi. Ammo o'zgarishlar juda sekin kuchga kirdi, muallif vaziyatga qandaydir tarzda ta'sir o'tkaza olmaslikdan aziyat chekdi va muammolarga yechim sifatida umri davomida ijtimoiy, hayotiy, xalqchil asarlar yozib, asar so'ngida yoki qahramonlar hayotida bu norozichiliklariga yechimlarni taqdim etdi. Buyuk yozuvchi 1970-yilda miyaga qon quyulishidan vafot etgan.

1837-1839 yillarda Charlz Dikpens o'zining ikkinchi romani “Oliver Tvistning sarguzashtlari” romanini ommaga taqdim etdi. Bu asar bolaligini tuya olmagan bola obrazi asosiga qurilgan, shuningdek, jinoyatchilar va ularning tanazzulga uchragan hayotlarini realistik tasvirlangan. Ammo ish jarayonida roman g'oyasi Dikpensning xalqning dolzarb ehtiyojlariga e'tiborini ko'rsatadigan mavzular bilan boyitildi, bu uning chinakam milliy realist yozuvchi sifatida keyingi rivojlanishini bashorat qilishga imkon beradi. Roman yaratilish tarixiga bir necha omillar turtki bo'lgan, bulardan biri — 1834-yilda yangi "Kambag'allar to'g'risida" gi qonunga binoan tashkil etilgan — mehnat uylari tashkil topishidir. Bungacha mahalliy cherkov hokimiyati va cherkovlar, aholining past sinf fuqarolariga va kambag'allarga g'amxo'rlik qilishgan. Yangi qonun barcha kambag'allarni bir nechta cherkovlardan bir joyga to'plashni buyurdi, ular o'z ehtiyojlari va kunlik harajatlarini qoplash uchun ishlashlari kerak edi. Shu bilan birga, kambag'allar o'z oilalarini tashlab ishlashga, mehnat uylarining aholisi charchoqdan, to'yib ovqat yemaslikdan nobud bo'lishni, tilanchilik uchun qamoqqa olinishni afzal ko'rishgan. Dikpens o'z romani

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bilan ingliz demokratiyasining ushbu eng yangi instituti atrofida qizg'in jamoatchilik tortishuvlarini davom ettirdi va Oliverning tug‘ilishi va mehnat uylaridagi bolalarning beminnat mehnatini tasvirlaydigan romanning unutilmas birinchi sahifalarida uni qattiq qoraladi. Dikkensning mazkur romani Kambag‘allar qonunini, mehnat uylari, ijtimoiy tabaqalanish, bolalar mehnati va bolalarni jinoiy ishlar uchun yollash kabi turli ijtimoiy masalalar ustida to‘xtalib jamoatchilik e’tiborini qozongan. Dikkens achchiq va qora hazil bilan romanda jiddiy mavzularni ochiq ifodalab ko‘rsatgan. Ayrim manbalarda Dikkens “Oliver Twistni sarguzashtlari” asarini yozishiga sabab, 1834- yillarda gazeta sahifalarida Nikolas Blinko, yetim bolaning ayanchli, mehnat uyidagi kamsitilishi bayon qilingan hikoyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. [12]

Romanning birinchi boblari orqali Charlz Dikkens o‘quvchini romanning asosiy mavzulari, asosan kambag‘allar qonuni va mehnat uyining nuqsonlariga ishora qiladi. Asosiy qahramon Oliver Twist mehnat uyida dunyoga keladi. Tug‘ilgandan ko‘p o‘tmay, onasi vafot etadi. Oliver hokimiyat qaramog‘idagi mehnat uyida qolgan yetimga aylanadi. Oliver hech qachon otasini ko‘rmagan; faqat romanning so‘ngida Janob Braunlou ismli kekxa janob tomonidan unga otasi haqidagi ma’lumotlar oshkor bo‘ladi.

Charlz Dikkens qalamiga mansub “Oliver Twist sarguzashtlari” asarida hayotiy voqealar bayoni, insonlar taqdiri, quyi sinf ishchilarning birozgina unutilgan yoki nazardan chetda qolganlar ijtimoiy muammolari aks ettirilgan. Roman nashr etilgan vaqt, Dikkens bunday dahshatli ertakni yozgani, Londonda avj olayotgan jinoyatchilik, bolalar o‘rtasidagi o‘g‘rilik keng tanqid qilindi. Hattoki, kitobning 1858-yildagi nashrida, muqaddima qismida, Dikkens shunday deb yozadi: “Men ushbu kitobni yozganimda, ne sabab ijtimoiy hayotda hech qanday o‘rni mavjud bo‘lmagan jamiyat, o‘z nutqi orqali axloqiy maqsadga hizmat qilmaydigan quloqni aybdor qilsa.”¹. Aslida, romanning muhim axloqi 1834-yilda qabul qilingan “Kambag‘allar qonuni” ning nomukammalligini ko‘rsatish, bundan tashqari, qashshoqlikka uchragan erkaklar, ayollar va bolalar mehnat uylarida umidsizlik va mashaqqatli hayotni aks ettirish edi. Dikkens o‘z bolalik davrini, kambag‘allarning ayanchli sharoitlarini ko‘rib, XIX asrning boshlarida Angliya mehnat uylaridagi bolalarni bolaligini ko‘rsatish maqsadida mazkur “Oliver Twistning sarguzashtlari” asarini yozdi. Muallif aks ettirgan bolalik - u yashagan jamiyatning kundalik hayotidan, u eng quyi sinf fuqarolari va ularning farzandlariga nisbatan

¹ Charles Dickens, Oliver Twist, London, 1998, p. 53

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ko‘rsatilayotgan noto‘g‘ri muomala, adolatsizlik va ayanchli sharoitlarni ko‘rib, ularni hammasini qog‘ozga tushirgan.

1834-yildagi kambag‘allar to‘g‘risidagi qonun qabul qilingach, quyi sinf ishchilari hayoti yanada og‘irlashgan, ilgari kambag‘alga g‘amxo‘rlik cherkov tomonidan bo‘lgan bo‘lsa, ya’ni unga oziq-ovqat yoki pul bilan yordam bergan bo‘lsa, endi ingliz burjuaziyasi o‘z kapitalini saqlab qolishni, har bir inson o‘zini o‘zi ta’minlashi kerak bo‘lgan. Shunday qilib, ingliz burjuaziyasi ishchilarga urush e‘lon qildi, bu ularni haddan tashqari ko‘p mehnat va bevaqt o‘limga mahkum etdi. Yangi qonunga ko‘ra, ishsizlar va kambag‘allar Mehnat uylariga yuborilgan. Bolalar ota — onalaridan, erlar xotinlaridan ajralishgan. Dikkins "Oliver Tvistning sarguzashtlari" (1837— 1839) da g‘azab va yurak og‘rig‘i bilan tasvirlangan mehnat uyidagi holatni bayon qiladi. U yangi roman ustida ishlashni, o‘zining ilk asarini yakunlamay boshlagan, u tasvirlagan g‘amgin, zerikarli mehnat uyida chaqaloq Oliverning tug‘ilishi va taqdiri noma’lum onasining vafot etgani bilan boshlanadi. Asarning bunday boshlanishiga asosiy sabablardan biri 1834-yil Gilbert Abeket tomonidan sahnalashtirilgan “Mehnat uyining rad etilishi” (“The revolt of Workhouse”) nomli baletidan ilhomlangan. Biroq Abeket va Dikkins bu mavzu haqida 1833-yillarda ham suhbat qurgani, ular bir- biriga yozgan xatlar orqali bilishimiz mumkin. [9; 248-249]

Asarni o‘qish jarayonida, nasil nasabi noma’lum yetimning hayot yo‘lini zarbalar va tarsaki ostida bosib o‘tishi, hamma tomonidan xo‘rlangan va hech qayerda mehr ko‘rmagan och kambag‘al bolaning ayanchli taqdirini kitobxon mutolaa qiladi. Ammo kutilmagan voqea yuz beradi. Kunlarning bir kunida kichkina och bola bo‘sh idishini qorni qappaygan oshpazga uzatdi va jimgina dedi: "Kechirasiz, janob, menga yana ovqat bering". Ushbu oddiy so‘zlarni aytish uchun unga katta jasorat kerak edi. Qo‘rquv va kamsitishni yengishi kerak edi va eng muhimi - bola itoatkorlikning qonunini buzishga va ochlikdan o‘lishga jimgina rozi bo‘lishga jur‘at etdi. Dikkins tomonidan bayon etilgan mazkur parcha ham xalq mehnat uyida sariqchaqaga mehnat qila turib ham, to‘yib ovqatlana olmayotganidan, hamma tahqir va nohaqliklarga indamay turganidan dalolatdir. Muallif o‘z hayqirig‘i bilan oddiy xalqning iztirobini aks ettirishga va “Kambag‘allar qonuni”ning qabul qilinishi insonlar taqdiriga ne chog‘lik ta’sir ko‘rsatayotganini ochiqqladi.

Dikkinsni qiynayotgan boshqa tashvish bor edi, ya’ni u "Oliver Tvistning sarguzashtlari" asarining keyingi nashrlarida Oliver Londonga yo‘l olgan vaqtda kambag‘allarning ijtimoiy hayotidagi "achchiq haqiqati" ni aks ettirdi. Kambag‘allarning mungli yuzlari, ularning ta’mirtalab uylari, doimiy ochlik, umidsizlik girdobida yashashini voqealar rivojida ko‘rsatib berdi. Shunday qilib,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Dickens jinoyat va kam ta'minlanganlarning yashash sharoitlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik borligini ta’kidlaydi.

Dickensning "Oliver Tvistning sarguzashtlari" romani nafaqat bu baxtsizlik haqida haqiqatni gapiribgina qolmay, balki yomon ijtimoiy tuzilmani ham qoralagan. Balki Dickens ijtimoiy tartibni tanqid qilgan. Va shu bilan birga, u foydali o‘zgarishlar oliy ma'lumotli sinflardan kelib chiqishi kerakligiga ishongan. U islohotlar tarafdori bo‘lib, islohotlar ishchilarga doimiy ish va barcha bolalarga majburiy boshlang‘ich ta’lim beradi deb hisoblagan. Yuqoridagi fikrga asardagi qahramon janob Braunlou kambag‘al Oliverga g‘amxo‘rlik qilgani, kitoblarga mehrini uyg‘otish uchun kitob mutolaa qilishni, xulq-atvor me’yorlarini sekin astalik bilan o‘rgata boshlaganini eslash kifoya. Va janob Braunlou bu hatti harakatlari bilan mehribonlik va boshqa tomondan sadoqatni keltirib chiqarishiga ishongan. Qashshoqlik, qo‘rquv va doimiy xo‘rlik odamni qanday buzishini bilgan Charlz Dickens ongli ravishda o‘zining kichkina Oliverini ifloslanmaydigan poklikning timsoliga aylantiradi. Va yaxshilik "Oliver Tvistning sarguzashtlari" da xuddi ertakdagi kabi g‘alaba qozonadi, yovuzlar mag‘lubiyatga uchraydi va halol, mehribon Oliver baxt va farovonlikni topadi. Ammo oliyjanob, yaxshi Oliver Nensining yordamisiz halok bo‘lar edi. To‘g‘ri Nensi ilmi, yuqori sinfdan bo‘lgan madaniyatli qahramon emas, u ham o‘g‘rilik, nopok ishlar girdobiga kirgan qiz, vaholanki, qalbida yaxshilik uchqunlari mavjud bir ojiza. Dickens mazkur qahramoni orqali jamiyatda qo‘li egri bo‘lgan insonlar yoki ilmsizlar ham insoniy yaxshi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatib berish bo‘lgan. Ammo aynan Nensi, Oliverni o‘g‘ri qilib, keyin uni dorning etagiga olib borishga urinayotgan yovuz Monks va Feyginning hiyla-nayranglari haqida bilib, Oliverning qutqaruvchisiga aylanadi va uni qutqarib o‘ladi.

Dickensning yana bir qahramoni Rouz Meyli, bu qizda u juda yaxshi ko‘rgan Meri Hogartni mujassam etgan.

Meri Hogarts, Dickensning turmush o‘rtog‘ining tug‘ishgan singlisi bo‘lib, Dickens unga haqiqatdan ham mehr qo‘ygani, bir biriga yaxshi munosabatda bo‘lgani aks etgan xatlar jamlanmasi mavjudligi asos bo‘la oladi. Merining kutilmaganda o‘lishi Charlzni qattiq larzaga keltirgan. U quvnoq va sog‘lom edi va biroq kutilmaganda kasal bo‘lib, yurak hurujidan vafot etadi. [11, 27-28] Dickens uning uchun maftunkor ayollik joziba va sadoqatning timsolini yaratgan. "Oliver Tvistning sarguzashtlari" asarida Rouz Meylining kasalligi, Dickensni chuqur o‘ylantirib qo‘yadi, uni yana yo‘qotishni boshdan kechirib, qahramonni asrab qoladi. Romanda Meri-Rouz o‘lmaydi. Yozuvchi uni tirik qoldiradi, shu bilan go‘yo sevimli qayni

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

singlisini kasallikdan qutqarib, unga roman sahifalarida sevish va kulish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida, shuni ta’kidlash kerakki, Charlz Dikens “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asarini yaratishiga quyidagi omillar asos bo‘lgan:

- Mehnat uylaridagi bolalarning ayanchli hayoti;
- “Kambag‘allar qonuni”ning quyi sinflar ijtimoiy hayotidagi fojiaiy oqibatlari;
- Ilm insonni jaholatdan qutqarishiga ishongan muallif o‘zidan buning amaliy natijasini aks ettirgan asar yozishni maqsad qilgan.

Har bir asarning o‘z taqdiri bor, “Oliver Tvistning sarguzashtlari” asari ham uzoq tarixi bo‘lishi bilan birgalikda, o‘z davrida xalqning sevimli romaniga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, U. (2024). CHARLZ DIKKENSNING “OLIVER TVISTNING SARGUZASHTLARI” ASARINING KOMPOZITSION TAHLILI. TAMADDUN NURI JURNALI, 8(59), 163-167.
2. Bowen, J. (2003). Other Dickens: Pickwick to Chuzzlewit. Oxford University Press, USA.
3. Butt, J., & Tillotson, K. (2013). Dickens at Work (RLE Dickens). Routledge.
4. Dickens, C. (1901). The Works of Charles Dickens (Vol. 9). Chapman and Hall.
5. Forster, J. (1892). The Life of Charles Dickens. Chapman and Hall.
6. Johnson, S. (1952). Charles Dickens. New Books List April-June 2009, 50.
7. Kaplan, F. (2013). Dickens: a biography. Open Road Media.
8. Rakhmatovna, A. U. HOME READING FOR UNIVERSITY EFL STUDENTS: ITS IMPACT AND THE PERSPECTIVES OF TEACHERS AND STUDENTS.
9. Ruth Richardson, Dickens and the workhouse, New York, Oxford University Press, 2012, pp 248-249
10. Ch. Dickens, Oliver Twist, London: Wordworth Editions Limited, 2000
11. Тугушева М. Чарльз Диккенс. Очерк жизни и творчества, -М. Детская литература , 1979. Стр.27-37
12. <https://englishancestors.blog/2019/03/27/the-real-oliver-twist/>